

---

## BUGUN TOSHLOQ TUMAN HOKIMLIGI MAJLISLAR ZALIDA USTOZ JURNALISTLAR, BIR GURUH MATBUOT XODIMLARI KASB BAYRAMI MUNOSABATI BILAN TAQDIRLANDILAR.

Tuman hokimi A.Djurabayev 27-iyun «Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari» kuni munosabati bilan matbuot xodimlarini kasb bayrami bilan samimiy qutladi.

Ochiqlik, soʻz erkinligi va jamiyatimizdagi barcha yoʻnalishdagi voqea-xodisalarga nisbatan toʻgʻri va holis, tezkorlik bilan yondashib, oʻz kasbining yanada yetuklari boʻlishlarini tiladi.

Qolaversa, faxriy, ustoz jurnalistlar ham eʼtibordan chetda qolmadi. Tuman hokimi tadbir yakunida barcha matbuot xodimlarini esdalik sovgʻalari bilan taqdirladi.

2022-06-27 15:35:24